TABIAT TASVIRIDA QAHRAMON PSIXOLOGIZMINING INIKOSI

Shapsanova Feruza Muzaffarovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari
universiteti tayanch doktoranti.
Mail: shapsanovaferuza@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.19368870

Annotatsiya: XX asr ingliz adabiyotida paydo bo’lgan modernizm va uning davomchisi bo’lmish, o’zida eklektika xususiyatini namoyon qilgan postmodernizm oqimlari ta’sirida yaratilgan romanlarning aksariyati syujet jadalligi va voqealar rivojidan ko’ra qahramonlarning ichki olami, ruhiyati va psixologiyasi tasviriga ko’lamli e’tibor berayotgani e’tiborlidir. Ikki jahon urushi asoratlari ta’sirida zamonaviy yozuvchilar yuqoridagi oqimlarning yetakchi tamoyilaridan biri bo’lgan individualizm va shaxsning qadri kabi g’oyalarga yon bosgan holda qahramoning massadan ajralgan holi va uning ongi va qalbida kechayotgan o’zgarishlarni tasvirlashga bel bog’laydilar. Ushbu tadqiqotimizda zamonaviy ingliz romannavisi Ayris Myordok ijodida tabiat tasvirining qahramon psixologiyasi ifodasi sifatida gavdalanishi ilmiy-tahliliy asoslanadi.

Kalit so’zlar: *roman, tabiat tasviri, qahramon psixologiyasi, ekzistensializm, zamonaviy adabiyot.*

Asosiy qism

Badiiy asarda tabiat tasviri bir nechta funksiyalarni bajarib keladi. Badiiy til yordamida obrazlashgan tabiat asar shaklini mukammallashtirishda, badiiy pafosni oshirishda, syujet chiziqlarini shakllantirishda, hamda qahramon ichri ruhiyatini tasvirlashda ijodkor quroli hisoblanadi. Asardagi tabiat manzaralari qahramonning ayni paytdagi ruhiy holatini, shuningdek, yaqinda yuz bergan yoki kutilayotgan voqealarga bo‘lgan ichki munosabatini ham ifodalaydi. [4, B. 132] Qahramon psixologizmi dinamik va analitik prinsiplar asosida tasvirlanadi. Qahramon hatti-harakatlari yordamida yoritilgan psixologizm dinamik, his-tuyg’ular tavsiloti tasviri esa analitik yondashuv hisoblanadi. Dinamik va analitik prinsiplar chog’ishtirilgan bo’lsa, sintetik psixologizm tasviri paydo bo’ladi. [5, B. 49-53] Myordok romanlarida kelgan tabiat tasviriga qahramon munosabati uning psixologizmini yoritib keladi va shu bilan sintetik psixologizm shaklini namoyon qiladi. Quyida Myordok ijodida uchraydigan tuman, dengiz, daryo kabi tabiat tasvirlari adiba romanlari asosida falsafiy yondashuv bilan tahlilga tortiladi.

Tuman xronotopi XX asr g‘arb badiiyatidagi falsafiy romanlarda qahramonlarning psixologik holatini tasniflashga xizmat qiladi. Jan-Pol Sartrning “Behuzurlik” [6] romanida tasvirlangan tumanli Juma obrazi, romanning bosh qahramoni Rokuentinning psixologizmini namoyon qilib, xaos olamdagi

qo‘rquvni ifodalaydi. Asarda Juma kuni quyuq tuman bilan boshlanadi. “Atrofimda odamlar bor edi; ba’zan ularning qadam tovushlarini yoki past ovozdagi shivir-shivirlarini eshitardim, ammo hech kimni ko‘rmasdim. … Qayerga ketayotganimni bilmasdim, … iztirob bilan takrorlardim: ‘Qayerga boraman? Qayerga boraman?’” [6, C. 98-104] Qahramonning tuman sababli ko‘rish qobiliyatining yo‘qolganligi uning mum olamdagi yolg‘izligini ifodalaydi.

Myordok romanlarida ham tuman xronotopi tez-tez uchrab turadi va personajlarning ruhiy olamini aks ettiradi. “It was a foggy evening in November... It was damp and cold. It was also very dark… The rest of the walk to Pimlico was like a nightmare. Thinking of it later, Rosa seemed to remember that she could hardly walk and that Stefan had had to support her and drag her along.” (*Noyabr oyining tumanli oqshomi edi… Havoda namlik va sovuqlik sezilardi. Atrof esa zulmatga cho‘kkandi… Pimlicogacha bo‘lgan yo‘l go‘yo dahshatli tushga o‘xshardi. Keyinchalik bu manzarani eslaganda, Roza deyarli yura olmaganini, Stefan esa uni qo‘llab, sudrab olib borganini yodga oldi.)* [2, P. 47-48] “Sehrgardan chekinib” [2] romanida retrospeksiya yordamida ochiqlangan Rozaning o‘tmishi tuman peyzaji yordamida dramatizmga boyitiladi. Stefan bilan tumanli, sovuq tunda uyga qaytayotgan Roza yo qo‘rquv, yo ongsiz hoxish-istak sababli axloqan tubansizlanishga rozi bo‘ladi. Tabiat xronotopi yordamida Rozaning qalbidagi tug‘yonlar, iztirob, afsus va qilgan ishidan paydo bo‘lgan qo‘rquv mahorat bilan tasvirlanadi.

Romanda keltirilgan tundagi tuman va dengiz xronotopi boshqa qahramonlarning ham irfoniy kuchga nisbatan qo‘rquvini ifodalaydi. “A thick mist surrounded them. … Annette felt suddenly in danger. The mist hemmed them in. …Terror and fascination were upon his brow. When Annette saw him she was yet more afraid. He was breathing hard and every now and then his mouth moved as if he were saying something the sound of which was lost in the roar of the sea.” (*Ularni quyuq tuman o‘rab oldi. … Annetta birdan xavfni sezdi. Tuman ularni har tomondan siqib, o‘rab oldi. … Uning yuzida qo‘rquv va maftun bo‘lish alomatlari ko‘rinar edi. Annetta uni ko‘rganida yana ham ko‘proq qo‘rquvga tushdi. U og‘ir nafas olar, ba’zida lablari qimirlab, nimanidir pichirlayotgandek bo‘lar, biroq uning ovozi dengizning gumburlagan shovqinida yo‘qolib ketardi.)* [2, P. 180] Parchada ulug‘vorlik ramzi bo‘lib kelgan dengiz Myordok badiiyatida falsafiy mazmun kasb etib, irfoniy kuchni inkor etuvchi ekzistensial qahramonlarning mistik uyg‘onishiga turtki bo‘lib xizmat qiladi.

“Yakkashox” [1] romanida obrazlashgan **dengiz** o‘lim konsepsiyasini ifodalaydi va shu orqali Skarren aholisi va unga kirib kelgan begona

qahramonlarda qo‘rquv hissini uyg‘otadi. Avtor dengizni shunday obrazlashtiradi: “‘No one swims in this sea. It’s far too cold. And it is a sea that kills people.’” *(‘Hech kim bu dengizda suzmaydi. U haddan tashqari sovuq. Va bu - odamlarni o‘ldiradigan dengiz.’)* [1, P. 12] Mahoratli suzuvchi bo‘lgan Meriyemning dengizga sho‘ng‘ish rejasi tushunarsiz qo‘rquv va dahshat tufayli amalga oshmay qolganidan so‘ng, Meriyemning onggida dengizga nisbatan metafizik kuch, yoki ulug‘vorlik oldida ojizlik hissiyoti shakllanadi. “She began to hear the faroff beating of the sea. She fell almost involuntarily upon her knees.” *(U uzoqlardan eshitilgan dengiz to‘lqinlarining urilish tovushini eshita boshladi. U beixtiyor tiz cho‘kib qoldi.)* [1, P. 48] Dengiz qirg‘og‘i atrof muhiti adiba tomonidan doimo negativ qorong‘u ranglarda tasvirlanadi; *dengiz – siyohdek qora, qirg‘oq – qora qumli, qoyalar – bosh ustida soyadek osilgan* kabi. Bu orqali avtor tabiatning nafaqat iliq tuyg‘ularga sababchi bo‘lishi, balki qudrat ramzi sifatida qo‘rquv va ojizlik hissini ham uyg‘otishi mumkinligini ifodalaydi. Myordok romanlarida ekzistensial manipulyator qahramonlar o‘ta tushunishga murakkabliklari bilan “Yakkashox” romanida tasvirlangan tabiat xrontoplarining xususiyatini o‘zida mujassam qiladi. Romanda keltirilgan tabiatning melanxolik ko‘rinishi doimo qahramonlarning mikroolamidagi tug‘yonlarga sababchi bo‘lib, ularda ko‘pincha tabiatning ulug‘vorligi oldida ojizlik hissini vujudga keltiradi. Ekzistensializm falsafasida Xudoning o‘rnini inson o‘zi egallab taqdirini yaratsa, “Yakkashox” romani insonning ulug‘vorlik oldida ojizligini va ekzistensial erkinlikning sarob ekanligini namoyon qiladi. Myordokning neoplatonizmida ulug‘vorlik bilan yuzlashish va uni tajribadan o‘tkazish insonni o‘zlikdan chetlatadi. “As she watched the rain falling on the wrecked garden and on the dull grass slope and on the gleaming streaming black cliffs and on the sullen iron-grey sea, Marian felt a shock of despair, a shock of mortality, as if Death were passing close before her face and, not yet ready to take her, had blown a chill breath into her mouth.” *(U yomg‘irning vayron bog‘ga, xira maysazor yonbag‘riga, jilg‘alardek oqar qora qoyalar va tund, temir-kul rang dengiz ustiga yog‘ayotganini kuzatar ekan, Marian yuragida umidsizlikning keskin zarbasini, hayotning o‘tkinchilik og‘rig‘ini his qildi - go‘yo O‘lim uning yuz oldidan yaqin o‘tarkan, hali olib ketishga shay bo’lmay, faqatgina og‘ziga sovuq nafasini ufirgandek bo’ldi.)* [1, P. 220] Keltirilgan parchada, ekzistensial qahramonning psixologiyasidagi tabiatning ulug‘vorligi yordamida ontologik yo‘qlikning mohiyatini sintez qilish jarayoni tasvirlanmoqda.

Adiba ijodida turg‘un makonlardan tashqari ba’zi dinamik makonlarning o‘rni ham e’tiborlidir. “To‘r ostida” [3] gavdalangan Temza va Senna **daryolar**i

dinamik makon hisoblanib, parallel ravishda London va Parij makonlari bajargan funksiyani duplikati hisoblandi. "… so still is the Seine with a glassy stillness which the tidal Thames can never achieve." *(… Senna shu qadar osudaki, uning shishaga o'xshash sokinligiga to'lqinli Temza hech qachon erisha olmaydi.)* [3, P. 189] Senna daryosining oyna kabi tiniqligi hayotning soxta aksini namoyish qiladi, xuddi Platonning g'oridagi olov natijasida yuzaga keluvchi sharpalar kabi. Temza daryosi esa o'z sathini o'zgartirishi bilan, to'lqinlari bilan hayot qiyinchiliklarini aks ettiradi.

Xulosa

Tabiat tasviri badiiy asardagi shakl va mazmun uyg'unligini ta'minlovchi obrazlardan biri bo'lib, uning turli xil funksiyalaridan tashqari qahramon psixologiyasining inikosi sifatida o'zini ko'rsatishi zamonaviy adabiyotshunoslikda muhim ahamiyat kasb qiladi. Faylasuf-yozuvchi sifatida ta'nilgan Ayris Myordok o'z ijodida bu prinsipni mahorat bilan qo'llaydi. Uning romanlarida tuman, dengiz va daryo kabi tabiat tasvirlari o'zida falsafiy mushoxadalarni namoyon qilib, qahramonning ichki olamini yoritishga xizmat qiladi. Tuman va dengiz tasvirlari falsafiy qarashlar aks etgan romanlarda ekzistensial inqiroz, qo'rquv, xavotir, hayot so'qmoqlarida adashish, o'zlik va haqiqatni izlash, ontologik yo'qlik bilan yuzlashish kabi go'yalarni o'zida mujassam qiladi. Yozuvchi romanlarida uchraydigan Temza va Senna daryolari haqiqat va illyuziya kabi ekzistensial va neoplatonik qarashlarni gavdalantiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1.Murdoch I. (2000). The Unicorn. London: Vintage, 292.
2.Murdoch, I. (1964). The Flight from the Enchanter. New York: Viking Press, 324.
3.Murdoch, I. (2000).Under the Net. London: Vintage, 296.
4.Qozoqboy Yo'ldosh, Muxayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016. – 306 b.
5.Umirov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 b.
6.Сартр Ж.-П. Тошнота / пер. с фр. Ю. Яхнино. — Москва: АСТ, 2022. — 320 с.